

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PARDAYEVA KOMILA UMIRZAQOVNA

**ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN
O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of pilosopy (PhD)
on pedagogical sciences**

Pardayeva Komila Umirzaqovna

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish..... 3

Пардаева Комила Умирзаковна

Совершенствование методики использования в образовательном процессе учебно-воспитательных взглядов Абдуллы Авлони 23

Pardaeva Komila Umirzakovna

Improving the methodology for using the educational views of Abdullah Avloni in the educational process..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PARDAYEVA KOMILA UMIRZAQOVNA

**ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN
O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7880 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi-www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida -www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatova Feruza Abulqosimovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Kenjayeva Muhayyo Atamuratovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida talabalarga tarixiy qarashlarga oid kasbiy g'oyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asr Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi, YUNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish"¹ kabi dasturiy hujjatlarida belgilangan vazifalar asosida oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligiga erishish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida mustaqil fikrlovchi mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish, pedagogik jarayonlar va ta'lim muhitini tarixiy qarashlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga allomalarning didaktik ta'limotidan foydalanishning zamonaviy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda, ya'ni Turkiyada, Amerika qo'shma shtatlarida, Angliya, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari Qozog'iston, Qirg'izistonda Abdulla Avloniyning asarlari tarjima qilingan va o'rganilgan.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar joriy etilib, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratildi, "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"² ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 736-son "Ta'lim

¹ Доклад ЮНЕСКО по науке – 2015 – На пути к 2030 году. UNESCO Publishing, 2017. – 794 с.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. www.lex.uz

tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o'rganish, jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish masalalari S.A Abdivohidov, N.I.Alimova, M.E.Inoyatova, D.U.Djurayev, D.M.Jamolova, G.T.Maxmudova, Z.Mirzayeva, S.Nishonova, M.A.Tojiboyeva, B.X.Xodjayev, K.Xoshimov, M.Quronov, B.Hasanov, A.I.Murodovlarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

Jadidchilikning umumxalq manfaatlari bilan uyg'unligi, mustaqillik va istiqloq g'oyalarining nazariy asosi, insonparvarlik va gumanizm tamoyillarining yangicha ko'rinishiga doir muammolari, jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan Tohir Chig'atoy, Boymirza Hayit, N.A.Kazbekova, N.S.Batrakova, V.E.Berejkova, A.Kubatova, G.S.Sultangaliyevlarning ishlarida yoritilgan.

Shu bilan bir qatorda zamonaviy sharoitda jadidchilik ta'limotini o'rganish va keng targ'ib qilish masalalari xorij olimlari Adeyeb Khalid, E.Olvort, A.Beningsan, E.Uimbush, Mobin M. Shorish, Suchandana Chatterjee, Pool Badan tomonidan tadqiq etilgan. Jadid adabiyoti namunalarini ingliz tiliga tarjima qilish harakati amerikalik tadqiqotchilar E.Olvort, V.Xonovey, J.Souperlar tomonidan amalga oshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan. (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Avloniyning badiiy-ijodiy merosidan o'quv jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

Abdulla Avloniyning ta'lim jarayonida ma'naviy axloqiy tafakurini bosqichma-bosqich rivojlantirishni aniqlashtirish;

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish modelini takomillashtirish

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv jarayonida 453 nafar talaba qatnashdi.

Tadqiqotning predmetini Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Avloniyning badiiy-ijodiy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'rifiy yondashuvlar, zamonaviy pedagogik shart-sharoitlar (multimedia vositalari, keyslar) hamda ta'lim jarayonida badiiy ijodiy meroslardan foydalanish didaktik bosqich (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish)larining tahlili asosida aniqlashtirilgan;

Abdulla Avloniyning ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirishning ijtimoiy kompetentlikni tayanch kompetensiyalarga uyg'unlashtirish hamda ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ustivorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

Abdulla Avloniy ma'naviy merosini o'qitish modeli pedagogik asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid didaktik tamoyillar (hamkorlik, insonparvarlik, tadrijiylik) hamda ma'naviy mezonlar (motivatsion, kognitiv, refleksiv), poetik maqsad va g'oyalarning uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi ta'limiy kompyuter dasturlarni va zamonaviy innovatsion metodlarni (Keys-stadi, Kichik guruhlarda ishlash, Munozara, Adabiy qahramon portretiga chizgilar, Step bay step, Aktivator-3,2,1) o'quv jarayonida ta'lim-tarbiyaga oid tarixiy qarashlarni zamonaviy ta'lim talablariga o'zaro moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari asosida amaliy ta'sirchan metodik tavsiyalar shakllantirilgan;

o'quv jarayonida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli yaratilgan;

Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va uslublar, foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarining ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Abdulla Avloniyning ilmiy-ijodiy merosi pedagogik, poetik, ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflanib, ulardan ta'lim jarayonida foydalanishning nazariy imkoniyatlari pedagogik jihatdan takomillashtirilgani; adibning didaktik merosi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tamoyillar, axloqiy ta'sir hamda ma'naviy mezonlarning metodik tavsiyalar asosida rivojlantirilgani ta'lim-tarbiya jarayonlarida yuqori samara keltirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarining didaktik imkoniyatlari, bu boradagi ilg'or innovatsion metodik tavsiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanishga oid takliflardan uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida, pedagogika va filologiya yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar, pedagogik tavsiyalar asosida:

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'rifiy yondashuvlarning tarbiyaviy jihatlarini qiyosiy o'rganish, ijodiy-faoliyatli pedagogik shart-sharoitlarni izchil oshirish hamda badiiy-ijodiy merosning umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPuning 2024 yil 20 noyabrdagi 11-05-6669/04 sonli ma'lumotnomasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 302-son buyrug'i asosida berilgan 302-1292 sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, Abdulla Avloniyning badiiy-ijodiy merosidan ta'lim jarayonida

foydalanishning uzviyligi va uzlyuksizligini qiyosiy-tahliliy o'rganish asosida takomillashtirish imkoni yaratilgan.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish jarayoni modeli ma'naviy-axloqiy tafakkurning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini yuzaga chiqaradigan ma'lumotlarni tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni mazmunga mos uyg'unlashtirish hamda ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tafakkuri va dunyoqarashini maqsadli rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2024 yil 20 noyabrdagi 11-05-6669/04 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish imkoni yaratilgan.

Abdulla Avloniyning ma'naviy merosini o'qitish pedagogik asarlarda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid didaktik tamoyillarning yaxlit mazmunini tahliliy aniqlashtirish hamda ma'naviy mezonlar, poetik maqsad, g'oyalarning integrativ uyg'unligini ta'minlash hamda ta'limda andragogik yondashuvning natijadorligiga intensiv ta'sir ko'rsatisha asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2024 yil 20 noyabrdagi 11-05-6669/04 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash va tayanch kompetensiyalarni takomillashtirishda Abdulla Avloniy ma'naviy merosining pedagogik ahamiyati ta'lim tizimida ma'naviy barkamol shaxs tarbiyalashga ustuvorlik berish asosida rivojlantirish imkoni yaratilgan;

Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi Keys-stadi, Modellashtirish, Bumerang, Ijodiy ish, Munozara, Galereya pedagogik texnologiyalari va Kahoot, Step by step, Aktivato-3,2,1 ta'limiy kompyuter dasturlardan foydalanish bosqichlarini faktik aniqlash hamda ta'lim-tarbiyaga oid tarixiy qarashlarni zamonaviy ta'lim talablariga o'zaro adaptiv moslashtirish tamoyillariga ustivorlik berish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2024 yil 20 noyabrdagi 11-05-6669/04 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy jurnal va anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlis Parlamentiga yo'llagan Murojaatnomasida ham bu borada alohida ta'kidlab o'tdi: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

Dissertatsiyaning "**Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Abdulla Avloniy ijtimoiy-pedagogik faoliyatining asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan, adibning badiiy-ijodiy merosining didaktik ustuvor jihatlari asoslangan, ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash hamda tayanch kompetensiyalarni takomillashtirishda Abdulla Avloniy ma'naviy merosining pedagogik ahamiyati yoritib berilgan.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmonining 5-yo'nalishidan o'rin olgan 73-maqsadda esa bevosita "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish"ga qaratilganligi bilan nihoyatda diqqatga sazovor bo'lib, ushbu mazmundagi ilmiy-pedagogik, ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning huquqiy asosi hamda bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi. Zero, ulug' ajdodlarimiz yaratib qoldirgan nodir tafakkur mahsullari, ilmiy-ijodiy meros, ma'naviyat durdonalari asrlar osha o'zining yuksak qadr-qimmatini va ahamiyatini saqlagan holda ta'lim-tarbiya jarayonining muhim hayotiy dasturilamali, ibrat maktabi, kamolot yo'llanmasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, tarixning turli bosqichlari dunyoning turli manzillarida ham shaxs ruhiy-ma'naviy kamolotiga jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida qarab kelinadi va ilg'or tafakkur sohiblari bu borada hamisha bilim va tajribalar asosida turli ko'rinishdagi targ'ibot ishlari olib borishadi. Yosh avlodga mukammal ta'lim-tarbiya berish orqali kelajak farovonligini kafolatlashga undashadi. Zotan, inson yaralganidan buyon uning ruhiy-ma'naviy barkamolligi, yetuk ta'lim-tarbiyasi eng muhim muammolardan bo'lib kelmoqda. Shaxs kamoloti, ruhiy pokligi birlamchi o'rinda bo'lmagan jamiyat inqirozga yuz tutishi esa achchiq tarixiy haqiqatlardandir.

Jadidlar ta'limotida shaxs axloqiy kamolotiga bo'lgan e'tibor muhim o'rin egallagan.

Dissertatsiyada pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarini tarbiyalash jarayonida jadidchilik harakati namoyandalari, xususan ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'limotidan unumli foydalanish natijasida ma'rifatparvar ajdodlarimiz orzu qilgan millat va Vatan manfaatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi, ma'rifatli, diniy va zamonaviy ilm-fanni egallagan, xushaxloq, barkamol shaxsni tarbiyalash imkoniyati kengaytirilgan.

Jadidlarning bosh maqsadi, ona Vatanni mustaqil va ozod holda ko'rish edi. Ular ozodlikka faqatgina kurash va qo'zg'olon bilan yetishib bo'lmasligini tushunib yetdilar, shuning uchun ham xalqni ma'rifatli qilishga kirishdilar, maorif, ta'lim-tarbiya borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdilar. Erk va istiqloq tarafdorlarining tarbiya, odob-axloq haqidagi fikrlari, asosan, qadimdan islom asosida qaror topgan qarashlar negizida shakllangan. Jadidlar ajdodlardan inson tarbiyasida musulmonlarga xos diyonatli, saxovatli, xushaxloq, xushmuomala bo'lish singari muhim xislatlarni qabul qildilar. Jadidlar: "Komil inson – bu, eng avvalo, zamonaviy insondir, zamonaviy inson esa, millat va Vatan manfaatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi, ma'rifatli, diniy va zamonaviy ilm-fanni egallagan, xushaxloq, tarbiyali kishidir", - deyishdi.

Ijtimoiy faol shaxs tarbiyasi uzoq va uzluksiz davom etadigan murakkab jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida ham kelajak avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligi tarixiy yozma manbalardan ma'lum. Bugungi kunda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Tadqiqot ishida pedagogika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablarida bakalavr Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi lozimligi ta'kidlanib, uning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan.

Umumkasbiy fanlar blokidagi pedagogika fanlari sohasi bo'yicha bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish; milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurligi e'tirof etilgan.

Shunga ko'ra, tadqiqot ishida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini umumkasbiy fanlar blokidagi "Umumiy pedagogika" fanidan "XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar", "Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari", mavzulari orqali buyuk ma'rifatparvar adiblarning ijodiy faoliyati, ilmiy merosi, pedagogik qarashlari, ta'limiy-axloqiy asarlarining mazmunini tahlil qilishlari ta'kidlangan.

K.Xoshimovning fikriga ko'ra, Abdulla Avloniy ijtimoiy-pedagogik faoliyatini qizg'in davom ettiradi. Jumladan, Abdulla Avloniy 1907-yillarda "Nashriyot" va "Maktab" kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh bo'ladi. Adib bularni keyinroq o'z tarjimai holida shunday izohlaydi: "Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi".

T.Qaxxorning tadqiqot ishida jadidchilik harakatining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan Avloniy faoliyatining asosiy g‘oyasi ana shu ikki maqsad – maktab-maorifni taraqqiy ettirish va xalq orasida ma‘rifat tarqatishga asoslangan. U bu yo‘lda bor kuch va iqtidorini, moddiy-ma‘naviy imkoniyatlarini sarflab, unutilmas fidoyilik ko‘rsatadi. Abdulla Avloniyning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi butun Toshkentda keng shuhrat qozonadi. Ammo ko‘p o‘tmay, 1908 yilda ushbu maktab ham yopiladi. Barcha qarshiliklarni yengishga harakat qilgan adib 1909 yilda Degrez mahallasida yana yangi maktab ochadi.

Z.Nasriyeva ta‘kidlashicha, Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta‘limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqrar bo‘lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta‘limiy, tarbiyaviy g‘oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma‘no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini alohida ta‘kidlab o‘tmoq joiz.

Adabiyotshunos olim Rahmatulla Barakayev o‘zining tadqiqot ishida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini XX asr boshlarida o‘zbek bolalari uchun yaratilgan maxsus ilk pandnoma asar sifatida talqin etib, ushbu asarni umumta‘lim maktablari adabiyot darsligiga kiritishni tavsiya etadi.

Edvort Olvortning fikricha, XX asr boshlarida hayotdagi tub o‘zgarishlarga monand holda o‘zbek adabiyoti va san‘atiga yangi janrlar muvaffaqiyatli ravishda kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolar haqida chuqur o‘ylaydigan, fikr yuritadigan yozuvchilar oldida mislsiz keng imkoniyatlar ochildi. Tashqi adabiy ta‘sirlar mumtoz adabiy an‘analarga tayanib kelgan mualliflar oldiga xarakter, shakl, uslub va tomoshabin (kitobxon)ga munosabat borasida yangi vazifalarni qo‘ya boshladi. Iste‘dodli ijodkorlarning samarali izlanishlarida novatorlik kurtaklari yuz ko‘rsatdi.

Dissertatsiyada uzluksiz ta‘limning har bir bo‘g‘inida ta‘lim-tarbiya uyg‘unligini ta‘minlash hamda tayanch kompetensiyalarni takomillashtirishda Abdulla Avloniy ma‘naviy merosining pedagogik ahamiyati yuqori ekanligi ta‘kidlangan.

Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari, “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” to‘plami 1910-yillarda bir necha marta qayta bosilib chiqdi va o‘z zamonasida Turkistonning juda ko‘p yangi usuldagi maktablari uchun, shuningdek, adabiyot ixlosmandlari uchun ham asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy zamonaviy o‘zbek pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan ma‘rifat fidoyilaridan hisoblanadi. U o‘zining butun hayotini millatni ziyoli qilish, ma‘nan va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lidagi zahmatli va sharaflil faoliyatga baxshida etdi. Shularga muvofiq biz Avloniyning badiiy-ijodiy faoliyatini quyidagicha tasniflaymiz(1-rasmga qarang):

Abdulla Avloniyning badiiy-ijodiy merosi		
Adabiy asarlar (nazm, nasr, dramaturgiya)	Pedagogik asarlar (maktab darsliklari, tarjimalar)	Publitsistik asarlar (maqola, fel'eton)

1-rasm. Abdulla Avloniyning badiiy-ijodiy merosi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida xulqlarni ikki (yaxshi va yomon) qismga ajratib, 33ta yaxshi va 18ta yomon (ba’zi manbalarda 34 ta yaxshi, 21 ta yomon) xulqqa birma-bir ta’rif beradi hamda ularni buyuk allomalar Suqrot, Arastu, Ibn Sino, Mirzo Bedil, Rumi, Ibn Sino, Shayx Sa’diy fikrlari, Hadislar hamda turli mazmundagi kichik hikoyatlar, ixcham hikmatlar bilan mazmunan boyitib, ta’sirchanligini oshirishga harakat qiladi. Inson fitratan pok tug’iladi. Go’dakda hech qanday yomonlik sifatleri bo’lmaydi. Kishilarni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog’liq. Shu bois Abdulla Avloniy “Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, degan g’oyani ilgari suradi.

Abdulla Avloniy asarda yaxshi va yomon xulqlar borasida batafsil izoh berar ekan, tajribali pedagog sifatida inson tarbiyasiga go’dakligidanoq jiddiy e’tibor qaratish zaruratini ilgari suradi. Shu asosda u bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi bo’limlarga ajratadi va ularning ahamiyatini tavsiflaydi:

Tarbiyaning zamoni. Ushbu bo’limda Abdulla Avloniy tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi: “Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liq”, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog’cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan.

Badan tarbiyasi. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo’ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog’lig’i haqida g’amxo’rlik qilishi lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog’lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo’lish uchun badanni tarbiya qilish zarur: “Badanning salomat va quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Fikr tarbiyasi. Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog’lom qilib o’stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikri, tafakkuri tarbiyasini o’qituvchilar faoliyatiga bog’laydi: “Bolalarda fikrlash qobiliyatini o’stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug’ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning

tarbiyasiga bog‘liqdur”. Shu o‘rinda alloma ta’lim va tarbiya jarayoni uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlab, jumladan shunday deydi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”.

Axloq tarbiyasi. Risolada ushbu masalaga nihoyatda keng o‘rin ajratilgan. Abdulla Avloniy insoniy xulqlarni yaxshi va yomon toifalarga ajratadi va har biriga alohida tushuntirish berib o‘tadi, fikr-mulohazalarini hayotiy misollar orqali dalillashga harakat qiladi.

Abdulla Avloniy pedagogika fanini yaxshi bilganligi uchun zamonaviy o‘zbek pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirish, yangi usuldagi maktablar ochish, teatr san’ati va nashriyotchilikni taraqqiy ettirish yo‘lida samarali xizmatlar qildi. Abdulla Avloniy ma’rifatparvarlar tomonidan ilgari surilgan ulug‘vor g‘oyalarni hayotga tatbiq etib, shaxsiy namuna ko‘rsatdi. Shu sababli pedagogika fani bilan tarbiya jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi tadqiqot ishimizda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dissertatsiyada ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini talaba-yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berishda mustahkam asos bo‘lishi ta’kidlangan, ular orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlari shakllantirilib, takomillashib borish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqilgan. Bu modelda Avloniy hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida samarador innovatsion texnologiyalari, interfaol metodlarini tatbiq etish yo‘llari yoritib berilgan.

Darhaqiqat, XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati namoyondalari o‘z faoliyatlarida jamiyat ijtimoiy-ma’rifiy hayotiga turli mazmundagi yangi islohotlar, yangi qarashlarni targ‘ib qiladilar. Ular jamiyat inqirozining asosiy sababini savodsizlik, ilmsizlik, ma’rifasizlikda ko‘rib, asosan, xalqni ilm-ma’rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o‘rganish, ta’lim-tarbiya tizimini yangilash va rivojlantirish yuzasidan jadal islohotlarni amalga oshiradilar. Jadidchilik harakatining maqsad va g‘oyalarni chuqur va ta’sirchan targ‘ib etishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon singari adabiy ulamolarning faoliyati nihoyatda yuqori bo‘lib, ular jadid adabiyotining yorqin siymolari, ma’rifatparvar shaxslar sifatida tarix sahifalaridan muhim o‘rin egallashgan.

Dissertatsiyada Abdulla Avloniyning jadidchilik harakatidagi eng qimmatli vazifasi zamonaviy ruhdagi diniy va dunyoviy fanlarni qamrab olgan “usuli jadid” maktablarini ochishi, ushbu maktablar uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” singari darsliklar, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yaratishi hamda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi borasida qayg‘urib, o‘zi asos solgan maktablarda pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatishi bilan belgilanishi ta’kidlanib, nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki o‘zbek pedagogikasi tarixida ham Abdulla Avloniyning alohida o‘rni, mustahkam

maqomi ochib berilgan. Bugungi o'zbek pedagogikasi, didaktikasini Abdulla Avloniyning samarali mehnatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, adib ijodiy merosi ta'lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlik asosida o'qitiladi. Adib o'zining pedagogik qarashlarida ham, badiiy-publisistik asarlarida ham, avvalo, insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini tarbiyalashni ustuvor deb biladi. Insoniy fazilatlar, odamiylik sifatlarini ulug'laydi, yaxshilik, ezgulikni, ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi.

Tadqiqot obyektidan kelib chiqib, oliy ta'lim bosqichida o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar mazmuni o'rganilganda, Abdulla Avloniyning hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish uchun yetarlicha ahamiyat berilmayotganiga guvoh bo'ldik. Xususan, oliy ta'lim muassasalarining "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishlarida o'qitiladigan "Pedagogika tarixi", "Umumiy pedagogika", "Pedagogika nazariyasi", "Xalq pedagogikasi" fanlari doirasida adib ijodini o'rganishga nisbatan kengroq yondashilishi lozim bo'lsada, "Pedagogika tarixi"da bor-yo'g'i 2 soatlik maxsus vaqt ajratilgan. Faqatgina filologiya yo'nalishlaridagi "Adabiyot tarixi" darslarida allomaning asosan adabiy faoliyati, ilmiy-badiiy ijodi 8-10 soat davomida o'rganib kelinadi.

Tadqiqot doirasida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli keltirib o'tiladi (2-rasmga qarang).

Mazkur modelga ko'ra asosiy komponentlar maqsad, jarayon hamda natija etib belgilangan bo'lib, Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish maqsad qilib qo'yilgan.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelining vazifalari etib Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, didaktik-metodik tizimi hamda metodikasini takomillashtirishni aniqlashtirish belgilab olingan. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelida aksiologik, shaxsga oid va faoliyatli yondashuvlardan foydalanilgan. Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tamoyillari: hamkorlik, insonparvarlik, tadrijiylik etib belgilangan. Model mazmuni ma'ruza va amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'limda amalga oshiriladi. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari mavzusidan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida referat, maqola, esse yozish orqali talabalarda mavzu yuzasidan chuqur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Texnologik komponent etib metod, shakl, usul va vositalar kiritilgan. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanishda bir qancha vositalardan foydalandik: Elektron ta'lim, Jadid.uz, multimedia vositalar. Elektron ta'lim- bu pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini texnologiyalar orqali tashkil qilish va talabalarga o'quv

